




Autizm-kasallikmi yoki ruhiy holat?

Ota-onalar uchun yon daftarcha



Autizm-kasallikmi yoki ruhiy holat?

Ota-onalar uchun yon daftarcha





*O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi
O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-
pedagogik respublika tashxis markazi tomonidan autistik
spektri buzilgan bolaning ota-onalariga tushuncha berish
maqsadida yozildi.*

Toshkent – 2022

UO‘K 347.2
KBK 78.202.4

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi Ilmiy Metodik kengashining 2022-yil 29-martdagi 1-sonli yig‘ilish qarori bilan ma’qullangan.

Tuzuvchichilar:

G.K.Alimova

O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish
va psixologik-pedagogik respublika
tashxis markazi bo‘limi metodisti

F.I.Kudratova

Samarqand viloyati Pastdarg‘om tumani
26-MTT direktori

Taqrizchilar:

M.Xamidova

Nizomoiy nomidagi Toshkent davlat
pedagogika universiteti,
Oligofrenopedagogika kafedrası mudiri,
p.f.d. dotsent

Sh.R.Axmedova


O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish
va psixologik-pedagogik respublika
tashxis markazi Inklyuziv ta’lim
laboratoriyasi bo‘limi metodisti

ISBN 978-9943-9245-7-0

© Tashxis markazi, 2022

Mundarija

- 1. Autizm nima?**
- 2. Autistik spektri buzilishi sabablari?**
- 3. Autistik spektri buzilishining tashqi ko‘rinishi?**
- 4. Autistik spektri buzilishining alomatlari.**
- 5. Autistik spektri buzilishining yosh davrlari.**
- 6. Autistik spektri buzilishi tashxisi qo‘yilgan bolalar.**
- 7. Autistik spektri buzilishi tashxisi qo‘yilgandan so‘ng.**
- 8. Autistik spektri buzilishining davosi bormi?**
- 9. Oilada tarbiya**
- 10. Autistik spektri buzilgan bolaning imkoniyatlarni o‘rganish.**
- 11. Autistik spektri buzilgan bolalar bilan o‘tkaziladigan korreksion (individual) mashg‘ulot nima?**
- 12. Yengil darajadagi autistik spektri buzilgan bolalar umumiy o‘rta ta’limda o‘qishi mumkinmi?**
- 13. Inklyuziv ta’lim nima?**
- 14. Inklyuziv ta’lim autistik spektri buzilgan bolaga nima beradi?**



Hurmatli ota-onalar.....

Farzandingiz tengdoshlariga nisbatan rivojlanishida orqada ekanligini his qilayapsizmi?

Bunday hollarda farzandingizni tegdoshlariga nisbatan taqqoslar ekansiz qayg‘uga tushishingiz tabiiydir. Xatti–harakatlaridan, o‘zini tutishidan shubhalansangiz, eng qisqa vaqt ichida mutaxassisga uchrang.

Unutmang! erta tashxis bilan autizmli bola boshqalar (ota-ona va yaqin qarindoshlar)ning dastaklarisiz yashay olishlari mumkin. Vaqt o‘tishi bilan chiroyli natijalar olishingiz mumkin. Autizmli bola bilan yashash qiyinchiliklarida sizlarning yoningizda va sizlarga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish maqsadida “Autistik spektri buzilishi” yon daftarchamizni taqdim qilamiz.

Autizm nima?

Autizm – (grekcha “autos”-“o‘zini”) bu ruhiyatning o‘ziga xos holati bo‘lib, ushbu tashxisga ega shaxs o‘z olamida yashaydi. Fikrlashi, xatti-harakati real voqelikdan uzilgan bo‘ladi.

1980-yillardan boshlab “autistik spektri buzilgan” tashxisi qo‘yilganlar soni sezilarli darajada oshdi. So‘nggi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, autizmning tarqalishi har 50 kishidan bittasiga to‘g‘ri keladi. Xuddi shu tadqiqotlarga ko‘ra, erkaklarda bu kasallik ayollarga qaraganda 3- 4 baravar ko‘pdir. Autizm uch yoshdan oldin o‘zini nomoyon eta boshlaydi.

Bugungi kunimizga kelib **autistik spektri buzilishi** (ASB) deyishimizdan maqsad, u ko‘p turlarga ega. Har bir bolada har xil alomatlar bilan uchraydi. Bir qarashda aniqlash

qiyin bo'lsa, ba'zi hollarda autizmli bolalar insonlar bilan muammosiz aloqaga kirishishlari mumkin, shu bois ushbu tashxisini aniqlashda qiyinchiliklar kuzatiladi. Autizm tashxisi shunchaki ruhiy holatdir-kasallik emas..

Autizm o'tgan asrlarda ham mavjud bo'lib, autizm tashxisiga aqli zaiflik deb qaralgan. Olimlarning fikricha, homilani ona qornidalik davrida ma'lum bir turdagi oqsillarning yetishmovchiligi, organizmda ikki xil og'ir metalning, qo'rg'oshin va simobning ko'payishi, ekologik buzilishlar va homiladorlik paytida kuchli stressni boshdan kechirish kasallikka sabab bo'lishi taxmin qilinmoqda.



Autistik spektri buzilishi sabablari?

Autistik spektri buzilishining kelib chiqishi sababi aniq emasligi va shu bilan birga genetik emasligi ham aytilmoqda. Qaysi nerv yoki genlarning ta'siri ekanligi keng miqiyosda o'rganilmoqda. Atrof muhitning ham autizmni kelib chiqish sabablari ekanligi to'g'risida qarashlar ham yo'q emas. "Autizm" bola parvarishi yoki oilaning moddiy vaziyati ta'siri sabab ro'yobga chiqmaydi. Shuning uchun autizm spektri buzilishi farqli jo'g'rofiyalarda, irq va oilalarda uchraydi.

Autistik spektri buzilishi, bugungi kunda ruhiy va aqliy rivojlanishi sustlashgan tashxisidan keyin eng ko'p neyro rivojlanishi buzilish bilan uchrayapti. Autizmli bolalarning 70% nutq va ruhiy rivojlanish mavjud bo'lsa 10 % esa yuqori intellektni ko'rish mumkin.




Autistik spektri buzilishining tashqi ko‘rinishi.

Tashqi ko‘rinishda boshqa bolalardan farq qilmaydi. Autizm o‘zini ijtimoiy muloqot va noodatiy xatti-harakatlar bilan nomoyon etadi.

Autistik spektri buzilishining alomatlari

Agar farzandingiz;

- ✓ ko‘z (ko‘zingizga qaramasa) aloqasi cheklangan yoki yo‘qligi,
- ✓ juda harakatsiz yoki juda faol bo‘lishi mumkin,
- ✓ ismi bilan chaqirilganda hech qanday tepki bermasliklari,
- ✓ Atrofdagilari bilan qiziqmasligi, hech qanday sababsiz yig‘lashlari yoki kulishlari mumkin,



✓ Ular o‘pish yoki quchoqlash kabi jismoniy aloqalarni yoqtirmaydilar,

✓ Ba’zi narsalarga haddan tashqari bog‘lanish bo‘lishi mumkin,

✓ Atrof muhitida o‘zgarish ularni bezovta qiladi,

✓ Tengdoshlari o‘ynayotgan o‘yinlarga qiziqmasligi yoki ularga qo‘shilmasligi,

✓ Gapirishi tengdoshlariga nisbatan kechikayotgan bo‘lsa yoki noodatiy ovoz chiqarsa,

✓ Harakat yoki mimikalarni taqlid qila olmayotganligi,

✓ Tebranishi, barmoqlari bilan me’yordan oshiq o‘ynash,

✓ Faqat o‘zi xohlagan harakat qilish istagi .

Bunday vaziyatlarda autizm spektri buzilishi shubhasi bilan mutaxassisga murojaat qiling.


Autistik spektri buzilishining yosh davrlari

Bolalik davri 0-11 yosh

Maktabgacha ta'lim davri 3-6 yosh

O'smirlik autizm davri 11-18 yosh





Bolalar psixonevrologi, bolalar psixiatri, bolalar pediatri, psixolog va defektolog mutaxasislari tomonidan autistik spektri buzilgan bola tashxisi qo'yiladi.

Bolalarga 18 oylikdan e'tiboran tashxis qo'yilishi mumkin. Yosh biz uchun juda ahamiyatli. Qancha erta tashxis qo'yib, shuncha tez bola bilan shug'illanib boshlashimiz lozim. Chunki 3 yoshli ASB (autistik spektri buzilgan) bolalardagi miya to'qimalari katta va mayda sterlar sabab 12 yoshdagi sog'lom bola miya to'qimalari qalinligiga erishgan bo'ladi. Agarda e'tibor qilinib erta tashxisi qo'yilgan autistik spektri buzilishi bo'lgan bolalar bilan korreksion mashg'ulotlar olib borilsa, bola tez ijtimoiy hayotga tayyor va yaqinlarining yordamlarisiz yashay olish darajasiga yetadi.



Mutaxassislar bolani kuzatadilar, maxsus testdan o'tkazadilar, bola va ota-onalar bilan suhbat qiladilar. Bu kuzatuv jarayoni kunlarcha davom etishi mumkin, shundan keyin bir xulosaga kelishlari mumkin. Chunki bolani holati tinmay o'zgaruvchandir.

Shifokor dori tavsiya qilishi mumkin (giperaktiv bolaga dori sokinlashishi uchun berilsa, ishtaxasi yoq bolaga ishtaha ochuvchi dori beriladi va hkz). Autistik spektri buzilishi farqliliklari boladan bolaga farq qiladi. Ba'zi bolalarda yengil formada, ba'zi bolalarda og'ir formada ko'rinadi.

Autistik spektri buzilishi tashxisi qo'yilgan bolalar

Autistik spektri buzilgan bolalarda besh sezgi organi ishlash tizimi notartibligi bilan bilinadi. Soniyalar ichida bir insonning miyasi millionlab ma'lumotlar tahlil qiladi. Biz qaysi ma'lumotni qabul qilish yoki qaysi ma'lumotni qabul qilmaslikni anglay olamiz. Misol uchun ko'chada mashina ketayapti, biz uchun faqat mashina ketayapti lekin autizmli bola uchun mashina tez suratda joy o'zgartirayapti, baland ovoz, katta tezlik, balonlari tez aylanayapti va hkz. Bular bola uchun bir stressdir. Shu ma'lumotlarni bir soniya ichida ASB bolalar o'zlari istamagan holda tartibsiz qabul qilishga majbur.

Ularning bir qismi tashqaridan sokin ko‘rinsalar ham aslida ichki dunyosida stress o‘tkazayapti. Biz kattalar ham ba‘zan o‘zimizni noqulay his qilganimizda takrorlanuvchi ba‘zi harakatlarni bajaramiz.

Barmoq o‘ynatish, lab tishlash. Autizmli bolalar ham o‘zlarini noqulay his qilganlarida qo‘llarini shopillatishi, baland ovoz chiqarishi, boshini devorga urishi yoki yerga yotib olishlari mumkin. Bu harakatlar o‘zlarini sokinlshtirish usulidir, faqat bizga noodatiy tuyulishi mumkin.

ASB larnini ushbu vaziyatdan olib chiqish uchun eng kichik yordamingiz kifoya yani bu muhitdan uzoqlashtirish va farzandingiz bilan u istagan mavzuda past ovozda suhbat qilish.



Autistik spektri buzilishi qo'yilgandan so'ng...

Oilalarga katta mas'uliyat yuklanadi. Ko'pincha ota-onalar ushbu jarayonda katta qayg'uga duchor bo'lishadi. Ota-onalar psixologik yordam olishlari mumkin. Farzandlari autizmga chalingan ota-onalar har doim ijobiy bo'lishi kerak, ayniqsa farzandlarining yonida, farzandining o'ziga va yaqinlariga zarar yetkazmaydigan odatdagi xatti-harakatlarga ruxsat berish va ularga moslashishlari kerak.

Farzandlariga autizm tashxisi qo'yilgan boshqa ota-onalar va guruhlar bilan bog'lanish mumkin. Bolaning ta'lim jarayoniga muhim ahamiyat berishi kerak. Bu jarayonda oilalar doimiy ravishda ishtirok etishi va o'z farzandlarining aqliy rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi tadbirlarni amalga oshirishi kerak.


Autistik spektri buzilishining davosi bormi?

Bugungi kunimizda afsuski autistik spektri buzilishi dori darmon bilan davolanishi isbotlanmagan. Ko‘plab tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki autistik spektri buzilishining eng ma‘qul davolash usuli erta tashxis va qulay sharoitda ta‘lim olishidir. Faqatgina erta va to‘g‘ri tashxis bilan adaptiv mashg‘ulotlar yordamida autizm alomatlarini kamaytirish va ijtimoiy hayotga qo‘shish, o‘ziga xizmat qila olish darajasiga yetkazish mumkin.

Oilada tarbiya...

Avvalo, bolangizni sizdan yaxshi taniydigan hech kim yo‘q. Hamma narsa oiladan boshlanadi.






Farzandingizni kuzating uning qiziqishlariga qarab unga yoqadigan mashg'ulotlarni toping. Bolaga kuniga 2-3 marta 3 yoki 5 daqiqa davom etadigan mashg'ulotlar va ularni rag'batlantirish orqali hayotiy ko'nikmalarga erishishingiz mumkin. Bundan tashqari farzandingiz bilan shug'ullanayotgan mahal uni chalg'itadigan materiallar va o'yinchoqlardan uzoq ekanligiga e'tibor qiling. Atrof-muhitning o'zgarishi (xonadagi narsalar va mebellar) autizmli bolalarda salbiy reaksiyalarga olib kelishi mumkin. Shu sababli, doimiy ravishda bir xil muhitda shug'ullanishingiz foydali bo'ladi.

Majburiy joy o'zgarishi bo'lsa, birinchi navbatda, bolaning yangi muhitga ko'nikishini va u yerda o'zini xavfsiz his qilishini ta'minlang.



Autistik spektri buzilgan bolaning mavjud imkoniyatlarni o‘rganish.


Asosiy maqsad uyda bolalarning muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishdir. Avvalo, bolaning muloqot qilishga urinishi ta'minlanadi. Misol uchun: yaxshi ko'rgan o'yinchoq (suv, non, sumka va hkz) bolaning qo'li yetmaydigan joyga joylashtiriladi. Unga erishish uchun undan muloqot qilishga urinish yoki yuz ifodalari, imo-ishoralar va og'zaki muloqot bilan o'z xohishini aytish yoki barmoq yordamida ko'rsatish so'raladi. Bola muloqot qilishga harakat qilganda, o'yinchoq u xohlagan joyga olib kelinadi. Buni kun davomida tez-tez bajarish orqali bolaning muloqot qobiliyatini oshirish ta'minlanadi. Umuman olganda, bunday usullardan foydalanish tavsiya etiladi va zararli emas.



Autistik spektri buzilgan bolalar bilan o‘tkaziladigan korreksion (individual) mashg‘ulot nima?

Korreksion mashg‘ulot-bu bolaning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda bolaga moslashgan adaptiv mashg‘ulotdir. Ota-onalarning bilimi va imkoniyatlari autizmli bolalarning aqliy va ruhiy rivojlanishi, nutqiy tafakkurni shakllantirish uchun yetarli emas. Faqatgina yakka korreksion-pedagogika-psixologik mashg‘ulotlar orqali yondashiladi. Ya’ni gapirish faoliyatini yaxshilash maqsadida logoped, psixologlar bilan mashg‘ulotlar olib borish, so‘zlashish uchun rasmlar, kartochkalardan foydalanish, kompyuterda so‘zlarni yozib o‘rgatish, bola bilan har xil o‘yinlar o‘ynash mumkin. Maxsus korreksion mashg‘ulotlar esa reabilitatsiya jarayonining sifatli kechishini ta’minlaydi. Bu orqali bolaning mustaqil xatti-harakatlarini

nazorat qiladi, kunlik hayot ritmiga mos yashashga tayyorlaydi. Korreksion mashg‘ulotga jalb qilinadigan autistik sferasi buzilgan bolaning qisqa vaqt ichida ijobiy o‘zgarishi yaqqol namayon bo‘ladi. Bu mashg‘ulotni **maxsus pedagog (defektolog)** amalga oshiradi.



Yengil darajadagi autistik spektri buzilgan bolalar umumiy o'rta ta'limda o'qishi mumkin.

Agar farzandingiz maktab yoshida bo'lsa hududiy xalq ta'limi boshqarmasi huzurida tashkil etilgan psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya xulosasiga ko'ra inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarining 1-sinfiga qabul qilinishlari mumkin. Faqat bu jarayon ota-onalar yoki ularning o'rni bosuvchi shaxslar roziligi bilan amalga oshiriladi.






Inklyuziv ta'lim nima?

Inklyuziv -bu-inglizcha [inclusion] -inklyuziya–
uyg'unlashish degan ma'noni beradi.

Hamkorlikdagi ta'lim, butun dunyo hamjamiyati tomonidan eng insonparvar va eng samarali ta'lim sifatida tan olingan bo'lib maktablarda sog'lom tengdoshlari bilan birga ta'lim olishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan ta'limdir.

Inklyuziv sinflarida jami o'quvchilar soni 30 nafardan oshmasligi lozim. Ushbu sinflarda umumiy o'rta ta'lim dasturlari bo'yicha ommaviy tarzda o'qiyotgan o'quvchilar bilan birga alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar soni 3 nafardan oshmaydi. Inklyuziv ta'lim sinflariga faqat bir xil




tibbiy tashxisdagi o‘quvchilar qabul qilinadi. O‘quvchilarning bilimlari ulardagi nuqsonlarning o‘ziga xosligini hisobga olgan holda davlat ta’lim standartlariga muvofiq baholanadi.

Inklyuziv ta’lim autistik spektri buzilgan o‘quvchiga nima beradi?

- ✓ yotsirash, yakkalanish kabi xususiyatlari yo‘qoladi;
- ✓ mustaqil harakatlanish, birgalikda, hamkorlikda ishlash imkoniyati tug‘iladi;
- ✓ ta’lim olishga bo‘lgan qiziqish ortadi;
- ✓ dunyoqarashi kengayadi, hayotiy tajribasi oshadi;
- ✓ o‘z- o‘ziga xizmat qilishni o‘rgatadi.


Autizm tashxisli mashxurlar....



Charles Darvin



James Joyke



Albert Eynshteyn

Savol va taklif uchun biz bilan bog‘laning....

Manzil: O‘zbekiston R., Toshkent sh., Ziyo 6-A uy

Telegram: <https://t.me/tashxismarkazi>, <https://t.me/inklyuziya>

Facebook: <http://facebook.com/tashxismark>

Web-sayt: www.Info-tashxis.uz

Tel: +998 71 246-98-04

+998 94 414-64-49



[illegible]



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabr "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risidagi №-638-sonli qarori;

2. 2021-yil 21-dekabr "Nogironligi bo'lgan shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bandligiga ko'maklashish hamda ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-57-sonli;

3. Inklyuziv umumta'lim maktablari kamsituvchi munosabatlariga qarshi kurashish va jamoalarda qo'llab-quvvatlovchi muhitni yaratish, inklyuziv jamiyat qurish va barchaga ta'lim berishning eng samarali vositasi sifatida Salamanka bayonoti. (Ispaniya), 1994-yil 7-10-iyun;

4. U. Fayziyeva, D. Nazarova, F. Qodirova. "SURDOPEDAGOGIKA" malaka oshirish institutlari va pedagogika institutlari uchun o'quv qo'llanma T.: "Sano standart" 2012-yil.

5. L.R. Mo'minova, Sh. M. Amirsaidova, Z.N. Mamarajabova, M.U. Xamidova, D.B. Yakubjanovna, Z.M. Djalolova, N.Z. Abidova "Maxsus Psixologiya" O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti Toshkent 2013.

6. "Alohida yordamga muhtoj bolalarni tarbiyalashda oila va maktab hamkorligi" Ilmiy-metodik to'plam, T-2013

7. D.A.Nurkeldiyeva, Ya.E.Chicherina "Ilk, maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarni psixologik-pedagogik, logopedik tekshirish" T-2014

<https://eduportal.uz>.

<https://www.medicalpak.com.tr>

<https://www.otizmvakfi.org.tr>

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktyabr "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi №-638-sonli qarori;

2. 2021-yil 21-dekabr "Nogironligi bo'lgan shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bandligiga ko'maklashish hamda ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-57-sonli;

3. Inklyuziv umumta'lim maktablari kamsituvchi munosabatlariga qarshi kurashish va jamoalarda qo'llab-quvvatlovchi muhitni yaratish, inklyuziv jamiyat qurish va barchaga ta'lim berishning eng samarali vositasi sifatida Salamanka bayonoti. (Ispaniya), 1994-yil 7-10-iyun;

4. U. Fayziyeva, D. Nazarova, F. Qodirova. "SURDOPEDAGOGIKA" malaka oshirish institutlari va pedagogika institutlari uchun o'quv qo'llanma T.: "Sano standart" 2012-yil.

5. L.R. Mo'minova, Sh. M. Amirsaidova, Z.N. Mamarajabova, M.U. Xamidova, D.B. Yakubjanovna, Z.M. Djalolova, N.Z. Abidova "Maxsus Psixologiya" O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti Toshkent 2013.

6. "Alohida yordamga muhtoj bolalarni tarbiyalashda oila va maktab hamkorligi" Ilmiy-metodik to'plam, T-2013

7. D.A.Nurkeldiyeva, Ya.E.Chicherina "Ilk, maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarni psixologik-pedagogik, logopedik tekshirish" T-2014

<https://eduportal.uz>.

<https://www.medicalpak.com.tr>

<https://www.otizmvakfi.org.tr>

